

## TRANSCHEGARAVIY BANKROTLIKDA UNCITRAL MODEL QONUNING QO'LLANILISHI: NAZARIYA VA AMALIYOT

**Tleumuratov Mambetbay Bazarbayevich**

PHD, DOTSENT BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVAERSITETI YURIDIKA  
FAKULTETI “FUQAROLIK VA BIZNES” HUQUQI KAFEDRASI BOSHIG'I

**Shamshetova Zulxumar Karamatdin qizi**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti 1-kurs magistranti

**Ozodboyeva Munavvara Ravshanbek qizi**

**Karimboyev Musa Adilbek O'g'li**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19946901>

**Annotatsiya:** Maqola UNCITRAL ning 1997 yil Transchegaraviy bankrotlik bo'yicha Model Qonunini — uning nazariy poydevoridan tortib, dunyo sudlari amaliyotiga qadar — keng qamrovda tahlil etishga bag'ishlangan. Alohida e'tibor O'zbekiston Respublikasining amaldagi bankrotlik qonunchiligi va Model Qonun o'rtasidagi nisbatga qaratilgan: mavjud kamchiliklar aniqlanib, aniq islohotchilik tavsiyalari ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** *transchegaraviy bankrotlik, UNCITRAL Model Qonuni, COMI, tan olish mexanizmi, universalizm, territorializm, O'zbekiston bankrotlik qonunchiligi.*

### KIRISH

Xalqaro tijoratning hozirgi ko'lami bir-ikki avlod oldin tasavvur ham qilib bo'lmaydigan darajaga yetib bordi. Transmilliy korporatsiyalar bir vaqtning o'zida o'nlab davlatlarda faoliyat yuritadi, aktivlari turli qit'alarga tarqalgan, kreditorlar esa ko'pincha bir-biridan minglab kilometr uzoqda joylashgan. Bunday murakkab iqtisodiy tuzilma bankrotlik holatida jiddiy huquqiy muammolarni yuzaga keltiradi.

Masala mohiyatiga qarasak, har bir davlat o'z hududidagi aktivlar va kreditlar ustidan mustaqil yurisdiksiyaga ega. Mana shu ko'p markazlilik bankrotlik ishlarini nihoyatda chigallashtirib yuboradi: bir davlatda boshlanib, boshqasida tugallanishi lozim bo'lgan jarayon ko'pincha qarama-qarshi sudlar va bir-birini inkor etuvchi qarorlar girdobiga tushib qoladi. Kreditorlar esa bu tartibsizlikdan eng ko'p zarar ko'ruvchi tomon bo'ladi.

Aynan shu sabab UNCITRAL 1997 yilda Transchegaraviy bankrotlik bo'yicha Model Qonunini ishlab chiqdi va qabul qildi.<sup>1</sup> Bu hujjat milliy qonunchiliklar uchun yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiluvchi namunaviy akt sifatida tasarlangan edi. Yigirma yetti yil o'tib, uni qabul qilgan davlatlar soni ellikdan oshdi. O'zbekiston hali ushbu guruhga kirmagan bo'lsa-da, davlatimizning xalqaro iqtisodiy integratsiyaga bo'lgan intilishi bu masalani kun tartibiga qo'ymoqda. Ushbu maqola Model Qonunni har tomonlama o'rganib, O'zbekiston uchun aniq xulosalar chiqarishga urinishdir.

### MODEL QONUNNING PAYDO BO'LISHI VA UNING HUQUQIY TABIATI

#### Tarixiy zaruriyat va qabul qilinish jarayoni

XX asrning so'nggi choragida yirik transmilliy kompaniyalar bankrotliklari ko'payib borgani sari milliy qonunchiliklar o'rtasidagi bo'shliqlar yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. BCCI (Bank of Credit and Commerce International) ning 1991 yildagi qulashi bunday

<sup>1</sup>UNCITRAL Model Law on Cross-Border Insolvency, UN Doc. A/52/17, Annex I. New York: United Nations, 1997. Hujjat UNCITRAL ning 1997 yil 30-may kuni Venada bo'lib o'tgan 30-sessiyasida qabul qilingan.

muammolarning eng yaqqol misoli bo'ldi — kompaniya bir vaqtning o'zida oltmishdan ortiq davlatda faoliyat yuritgani uchun ish yuritish nihoyatda uzoq cho'zildi va kreditorlarning aksariyati haqli tovonini ola olmadi.

Bu vaziyatni ko'rgan UNCITRAL 1994 yilda Ishchi guruhi V (Insolvensiya) doirasida yangi hujjat ustida ish boshladi. Uch yillik tinmay muzokara va murosa natijasida 1997 yil 30-may kuni Venada bo'lib o'tgan 30-sessiyada Transchegaraviy bankrotlik bo'yicha Model Qonuni so'zsiz qabul qilindi. BMT Bosh Assambleyasi esa o'sha yilning dekabrda 52/158-sonli Rezolyutsiyasi bilan hujjatni barcha a'zo davlatlarga tavsiya etdi.<sup>2</sup> Shundan buyon Model Qonun xalqaro insolvensiya huquqining bosh tayanch hujjatiga aylandi.

### **Universalizm va territorializm: qaysi yo'l to'g'ri?**

Xalqaro bankrotlik nazariyasida ikki yetakchi maktab mavjud. Universalistlar — ularning eng ko'zga ko'ringan vakili Jay Lawrence Vestbruk bo'lib, uning 2000 yildagi tadqiqoti bu yo'nalishda burilish nuqtasi bo'ldi<sup>3</sup> — barcha aktivlarni yagona yurisdiksiya ostida jamlash va bir sud orqali ko'rish kerak deb hisoblaydi. Bundagi mantiq sodda: markazlashgan boshqaruv xarajatlarni kamaytiradi, kreditorlarga teng munosabatni ta'minlaydi.

Ammo Lynn LoPucki kabi territorialistlar bu fikrga keskin qarshi chiqadi.<sup>4</sup> Ularning dalili shuki, universalizm amalda bosh idorani ro'yxatdan o'tkazgan davlat qonuniga ko'r-ko'rona bo'ysunish demak, bu esa mahalliy kreditorlarning manfaatlarini himoyasiz qoldiradi. Ikki maktab o'rtasidagi bu bahs hali ham davom etmoqda. Model Qonun esa qat'iy bir tomonga og'maydi — u «muvofiqlashtirilgan universalizm» deb ataluvchi o'rta yo'lni tanlagan: xalqaro hamkorlikni rag'batlantirib, ayni vaqtda milliy sudlarga yetar miqdor ixtiyoriyat beradi.

### **MODEL QONUNNING TAYANCH TUSHUNCHALARI**

#### **COMI — hujjatning asosiy kaliti**

Butun Model Qonun tizimining markazida COMI (Centre of Main Interests — Asosiy Manfaatlar Markazi) tushunchasi turadi. 2-modda bo'yicha xorijiy asosiy ish yuritish deganda qarzkorning COMI joylashgan davlatdagi protsedura nazarda tutiladi.<sup>5</sup> Ya'ni, qaysi davlat qarzkorning «iqtisodiy uyini» hisoblansa, o'sha davlat protsedurasiga ustuvorlik beriladi.

16-modda bir qiziqarli qoidani o'rnatadi: yuridik shaxsning rasmiy manzili aksincha isbotlanmaguncha COMI deb taxmin qilinadi.<sup>6</sup> Bu prezumpsiya amaliyotda juda ko'p bahslarga sabab bo'ldi. Ayrim kompaniyalar protsedura ochishdan sal oldin o'z yuridik manzillarini qulayroq yurisdiksiyaga ko'chirgan, bu esa «COMI shifting» deb ataluvchi muammoni keltirib chiqardi. Sudlar bu ko'chirishning rostakam iqtisodiy asosga ega yoki mavhummi, deb har safar sinchiklab tekshirishga majbur bo'ldi.

---

<sup>2</sup>UN General Assembly Resolution 52/158, UN Doc. A/RES/52/158, 15 December 1997. Rezolyutsiya Model Qonunni davlatlar tomonidan milliy qonunchilikka implementatsiya qilishni rasman tavsiya etgan.

<sup>3</sup>Westbrook J.L. A Global Solution to Multinational Default // Michigan Law Review. 2000. Vol. 98, No. 7. P. 2276–2328. Muallif 'modifitsiyalangan universalizm' kontsepsiyasini ishlab chiqqan.

<sup>4</sup>LoPucki L.M. The Case for Cooperative Territoriality in International Bankruptcy // Michigan Law Review. 1999. Vol. 98, No. 7. P. 2216–2251.

<sup>5</sup>UNCITRAL Model Law on Cross-Border Insolvency (1997), Art. 2(b). 'Xorijiy asosiy ish yuritish' tushunchasi shu modda orqali aniqlanadi.

<sup>6</sup>Ibid., Art. 16(3). COMI prezumpsiyasi: yuridik shaxsning ro'yxatga olingan manzili aksincha isbotlanmaguncha COMI hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi ham COMI tushunchasini o'z insolvensiya reglamentiga kiritgan — bu ikki tizim o'rtasidagi kontseptual yaqinlik Model Qonunning yaxshi asosga qurilganligini ko'rsatadi. Biroq har qanday tushunchaning so'nggi so'zi nazariyada emas, sud amaliyotida bo'ladi.

### **Tan olish va uning oqibatlari**

Xorijiy vakil mahalliy sudga murojaat qilib, chet davlatdagi protseduraning tan olinishini so'rashi mumkin. 15–17-moddalar bu tartibni batafsil belgilaydi. Tan olish ikki ko'rinishda bo'ladi: «xorijiy asosiy» va «xorijiy noasosiy» ish yuritish. Farq ahamiyatli: asosiy deb tan olingan ish to'liq avtomatik to'xtatish rejiminini ishga tushiradi.<sup>7</sup>

Avtomatik to'xtatish — bu kreditorlar uchun bir zunda nafas olish imkonini beruvchi choradir. Shu paytdan e'tiboran aktivlarga ijro qaratilmaydi, mulk o'tkazilmaydi, alohida da'volar ko'rib chiqilmaydi. Bu mexanizm AQSh bankrotlik huquqidagi «automatic stay» tushunchasiga yaqin bo'lsa-da, o'ziga xos transchegaraviy o'lchamga ega.

### **Hamkorlik: so'zdan ishga**

25–27-moddalar sudlar va boshqaruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni tartibga soladi. Bu qoidalar ko'rinishda oddiy: to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish, ma'lumot almashish, faoliyatni muvofiqlashtirish. Amalda esa narsalar murakkabro'q. Turli huquqiy tizimlar, turli til va madaniyat ortqasida real hamkorlik ko'p sabr va professional etika talab qiladi. Shunday bo'lsa-da, ikki va undan ortiq davlat sudlari birgalikda ish olib borgan holatlar endi uchrayapti — bu o'zida katta yutuqdir.

## **MILLIY QONUNCHILIKKA IMPLEMENTATSIYA TAJRIBASI**

### **AQSh: eng to'liq namuna**

Model Qonunni eng izchil hayotga tatbiq etgan davlat — AQSh. 2005 yildagi BAPCPA (Bankruptcy Abuse Prevention and Consumer Protection Act) federal bankrotlik kodeksiga 15-bobni qo'shdi.<sup>8</sup> Qiziq jihati shuki, 15-bob shu paytga qadar mavjud bo'lgan 304-paragrafni to'liq almashtirib, ancha puxta tizim o'rnatdi. AQSh sudlari 15-bob bo'yicha to'plagan amaliyot hajmi jihatidan dunyoda tengsiz — bu mamlakatni yirik transchegaraviy bankrotlik ishlarining defakto markaziga aylantirdi.

### **Buyuk Britaniya va boshqa davlatlar**

Buyuk Britaniya 2006 yildagi maxsus Nizom orqali Model Qonunni joriy etdi.<sup>9</sup> Yaponiya buni 2000 yilda amalga oshirdi — bu rivojlangan iqtisodiyotlar orasida juda erta qadam edi. Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika ham shu yo'ldan bordi. Kanada Model Qonunni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilmagan bo'lsa-da, 2009 yildagi qonun o'zgartirmalari uning ruhini o'z tizimiga singirdi. Shu tariqa «Model Qonun oilasi» shakllanib, transchegaraviy ishlarda umumiy til vujudga keldi.

## **O'ZBEKISTON: AMALDAGI HOLAT VA ISTIQBOL**

### **Mavjud qonunchilik nima deya oladi?**

<sup>7</sup>Ibid., Art. 20. Tan olishdan keyingi avtomatik to'xtatish: qarzkorning aktivlariga ijro chora-tadbirlari va mulkni o'tkazish taqiqlanadi.

<sup>8</sup>Bankruptcy Abuse Prevention and Consumer Protection Act of 2005, Pub. L. 109–8, 119 Stat. 23 (11 U.S.C. §§ 1501–1532, Chapter 15). Kuchga kirgan sanasi: 17 oktyabr 2005 yil.

<sup>9</sup>Cross-Border Insolvency Regulations 2006, SI 2006/1030 (United Kingdom). Ushbu Nizom Angliya, Uels va Shotlandiyada qo'llaniladi.

O'zbekistonda bankrotlik jarayonlarining bosh normativ manbai «To'lovga qodir emaslik (bankrotlik) to'g'risida»gi Qonundir.<sup>10</sup> Bu hujjat qayta tashkil etish, tugatish, boshqaruvchi tayinlash va kreditorlar yig'ilishini tartibga soladi — ya'ni ichki insolvensiya uchun etarlicha puxta asos. Ammo gap shu yerda to'xtaydi. Transchegaraviy — ya'ni bir necha davlatni qamrab oluvchi — bankrotlik holatida qonun deyarli jim. Xorijiy ish yuritishni tan olish mexanizmi, COMI ga yaqin tushuncha, avtomatik to'xtatish qoidasi — bularning barchasi hozirgi qonunda yo'q.

Xorijiy sud qarorlarini tan olish sohasida O'zbekiston MDA doirasidagi 1993 yilgi Minsk konventsiyasiga tayanadi.<sup>11</sup> Bu konventsiya fuqarolik va oilaviy ishlarda huquqiy yordam ko'rsatishni tartibga soladi, biroq insolvensiya protsedurasining o'ziga xos ehtiyojlariga mo'ljallangan emas. Xo'sh, xorijiy investor O'zbekistondagi mol-mulkka da'vo qilmoqchi bo'lsa, qaysi asosda murojaat qiladi? Amalda sudlar har bir holni alohida, ko'pincha umumiy xalqaro xususiy huquq tamoyillariga tayangan holda hal etadi — bu esa ham vaqtini, ham pulni yutadi.

### **Nima uchun bu masala kechiktirib bo'lmaydi?**

So'nggi yillarda O'zbekistonga xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi sezilarli oshdi. Qo'shma korxonalar, xorijiy sho'ba kompaniyalar, xalqaro kredit liniyalari — bularning hammasi bir kun kelib insolvensiya masalasiga duch kelishi mumkin. O'sha kunda sudimiz qaysi qonunga tayansa, kreditor qaysi hujjatga murojaat qilsa — bugundan aniq javob bo'lishi lozim.

Muammoni yana bir tomondan ko'raylik. O'zbekiston kompaniyalari ham xorijiy bozorlarda tobora faolroq ishlamoqda. Ular u yerda bankrotlikka uchrasa, yoki xorijdagi hamkorlar O'zbekistondagi aktivlarga da'vo qilsa — amaldagi huquqiy bo'shliq har ikki tomon uchun ham katta xavf.

### **Model Qonun nima beradi va qanday kiritish kerak?**

Model Qonunni joriy etish uch muhim natijani ta'minlaydi. Xorijiy investorga O'zbekiston huquqiy tizimi bashorat qilinadigan bo'lib ko'rinadi — bu investitsiya qarorida katta rol o'ynaydi. Sud hamkorlik mexanizmlari rasmiylashtirilib, chet el vakillari O'zbekiston sudida tezroq va aniqroq harakat qila oladi. Nihoyat, Jahon bankining insolvensiya ko'rsatkichi bo'yicha reytingimiz oshadi — bu esa mamlakatning biznes muhiti imidjini mustahkamlaydi.

Amalga oshirish yo'li borasida shoshmaslik kerak. Avval amaldagi qonunchilik jiddiy tahlil qilinishi, Model Qonun normalari bilan qorishmaydigan joylar aniqlanishi lozim. Undan so'ng ikki variant ko'rinadi: yoki alohida «Transchegaraviy bankrotlik to'g'risida»gi qonun qabul qilinadi, yoki amaldagi Qonunga maxsus bob sifatida qo'shiladi. Ikki variantning ham o'z afzallik va kamchiligi bor — bu siyosiy tanlovdir. Lekin sud tizimida bilim va malakani oshirmasdan qonunni qabul qilib bo'lmaydi: sudyalari, arbitrlar, boshqaruvchi menejerlar uchun maxsus o'quv dasturlari zarur.

### **MODEL QONUNNING ZAIF TOMONLARI VA YECHILMAGAN MASALALAR**

Hujjat qanchalik puxta bo'lmasin, amaliyot doimo yangi savollar tug'diradi. COMI ning talqini shu kunda ham bir xil emas: turli davlat sudlari turlicha mezonlarga asoslanadi, bu esa noaniqlikni yo'qotmaydi. «Jamoat tartibiga xilof» istisnosini qo'llash ham juda keng

<sup>10</sup>O'zbekiston Respublikasining «To'lovga qodir emaslik (bankrotlik) to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi: <https://lex.uz>

<sup>11</sup>Konventsiya o pravovoy pomoshchi i pravovyxk otnosheniyakh po grazhdanskim, semeynym i ugovnym delam, 22 yanvar 1993 yil (Minsk). Kuchga kirdi: 19 may 1994 yil. O'zbekiston ushbu konventsiyaga ishtirokchi davlat.

ixtiyoriyatga ega — ba'zi sudlar undan xorijiy protsedurani rad etish vositasi sifatida foydalanadi, bu esa hamkorlik ruhiga zid.

Korporativ guruhlar — ya'ni bir-biriga bog'liq kompaniyalar tarmog'i — bankrotlikka uchrasa, Model Qonun bu holatni to'la qamrab olmaydi. UNCITRAL 2019 yilda bu borada qo'shimcha tavsiyalar ishlab chiqdi, biroq ular hali qonun kuchiga ega emas. Raqamli aktivlar va kriptovalyutalar sohasidagi bankrotliklar ham yangi qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda — bu masala ham yechimini kutayapti.

### **XULOSA**

UNCITRAL ning 1997 yildagi Model Qonuni — bu murosaning mevasi. Universalizmning ideallik da'vosidan ham, territorializm mafkurasining qat'iyigidan ham voz kechib, har ikki yondashuvning ijobiy tomonlarini birlashtirdi. Buning natijasi o'zini ko'rsatdi: bugungi kunda ellikdan ortiq davlat uni qabul qilgan yoki unga o'xshash tizim joriy etgan.

Vitro va Ocean Rig ishlari ko'rsatdiki, eng yaxshi yozilgan qonun ham amaliyotning barcha savollariga oldindan javob bera olmaydi. Hujjat doirasi aniq, biroq uni izchil qo'llash uchun malakali sudyalalar va rivojlangan ish yuritish madaniyati zarur. Bu esa vaqt va sa'y-harakat talab qiladi.

O'zbekiston uchun esa masalaning amaliy jihati alohida bo'rtib turadi. Xalqaro iqtisodiy integratsiya tobora chuqurlashib borar ekan, transchegaraviy insolvensiya sohasidagi huquqiy bo'shliq uzoq vaqt qolishi mumkin emas. Model Qonunni joriy etish — bu shunchaki qonun yozish emas, bu xalqaro hamjamiyatga aniq signal: O'zbekiston investitsiyalar uchun qulay va bashorat qilinadigan muhit sifatida istalgan vaziyatda ishonchli sherik bo'la olishini isbotlaydi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. UNCITRAL Model Law on Cross-Border Insolvency, UN Doc. A/52/17, Annex I. New York: United Nations, 1997.
2. UN General Assembly Resolution 52/158, UN Doc. A/RES/52/158, 15 December 1997.
3. Bankruptcy Abuse Prevention and Consumer Protection Act of 2005, Pub. L. 109-8, 119 Stat. 23 (11 U.S.C. §§ 1501-1532, Chapter 15).
4. Cross-Border Insolvency Regulations 2006, SI 2006/1030 (United Kingdom).
5. Act on Recognition of and Assistance for Foreign Insolvency Proceedings, Act No. 129 of 2000 (Japan).
6. Cross-Border Insolvency Act 2008 (Cth) (Australia).
7. Regulation (EU) 2015/848 of the European Parliament and of the Council of 20 May 2015 on Insolvency Proceedings (Recast), [2015] OJ L 141/19.
8. Konventsiya o pravovoy pomoshchi i pravovykh otnosheniyakh po grazhdanskim, semeynym i ugolovnym delam, 22 yanvar 1993 yil (Minsk). Kuchga kirdi: 19 may 1994 yil.
9. O'zbekiston Respublikasining «To'lovga qodir emaslik (bankrotlik) to'g'risida»gi Qonuni. O'zR qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi: [lex.uz](http://lex.uz)
10. Fletcher I.F. Insolvency in Private International Law. 2nd ed. Oxford: Oxford University Press, 2005. ISBN 978-0-19-926239-4.
11. Wessels B., Markell B.A., Kilborn J.J. International Cooperation in Bankruptcy and Insolvency Matters. Oxford: Oxford University Press, 2009. ISBN 978-0-19-537574-1.
12. Virgos M., Garcimartin F. The European Insolvency Regulation: Law and Practice. The Hague: Kluwer Law International, 2004. ISBN 90-411-2143-7.

- 
13. UNCITRAL Secretariat. UNCITRAL Model Law on Cross-Border Insolvency with Guide to Enactment and Interpretation. New York: United Nations Publications, 2014. ISBN 978-92-1-133819-5.